

**Muhammad Yusuf tavalludining  
67 yilligi munosabati bilan  
poytaxtimizdagi Adiblar  
xiyobonidagi tadbir**





26 -aprel kuni erta tongdan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev rahbarligida institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, talabalar, keng jamoatchilik O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 67 yilligi munosabati bilan poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida jam bo'lishdi. Institut jamoasi tomonidan Muhammad Yusuf xotirasiga hurmat bajo keltirilib, shoir haykali poyiga gullar qo'yildi.



Bu yerda tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirda so'zga chiqqan institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev Vatan va muhabbat kuychisi – Muhammad Yusufning hayoti va sermahsul ijodi haqida to'xtaldi. Shoir qoldirgan boy ma'naviy merosning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Muhammad Yusuf ijodining milliy adabiyotimizni rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyati haqida gapirdi.



Shoirning zamondoshlari tomonidan Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan bog'liq xotiralar yana bir bora yodga olindi. ZOOM dasturi orqali uzatilgan, O'ZDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali hamda Nukus filiallari tadbirda shoir she'rlaridan namunalar o'qildi.



Institut professor-o'qituvchilari, talabalar tomonidan Muhammad Yusuf she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar ijro qilindi. Teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.



Tadbirda ishtirok etgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga kitoblar sovg'a qilindi. O'zbekiston xalq shori Muhammad Yusuf tavalludining 67 yilligi munosabati bilan Adiblar xiyobonida bo'lib o'tayotgan tadbirdan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev "O'zbekiston 24" telekanali orqali to'g'ridan-to'g'ri jonli efirga chiqib, bugungi madaniy-ma'rifiy tadbirning mazmun-mohiyati haqida so'zlab berdi.



Kanal muxbiri bilan bo'lib o'tgan muloqot chog'ida Muhammad Yusuf hayoti va ijodini abadiylashtirish borasida institutda amalga oshirilgan va kelgusida qilinishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.

**Matbuot kotibi**